

Autizm sindromi va uning turlari asperger sindromi

Zulhumor Xakimovna Xakimova
Toshkent xalqaro kimyo universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada autizm sindromi va uning asosiy belgilari haqida ma'lumot, kelib chiqish sabablari, turlari, o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida tushunchalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: autizm sindromi, sabablar, belgilar, asperger, kenner, atipik, rett sindromlari

Autism syndrome and its types Asperger syndrome

Zulhumor Khakimovna Khakimova
Tashkent International University of Chemistry

Abstract: This article provides information about autism syndrome and its main symptoms, causes, types, and specific features.

Keywords: autism syndrome, causes, symptoms, asperger, kenner, atypical, rett syndromes

KIRISH:

Autizm (grekcha so'z bo'lib "autos" -"o'zim" degan ma'noni bildiradi) - bu ruhiyatning o'ziga xos holati bo'lib, bemor tashqi olam, atrofdagilar bilan muloqotga kirishishni xohlamaydi. U yolg'izlikni yoqtiradi. Yana bir xil xatti-harakat va bir xil so'zlarni takrorlaydi. Autizm tashxisli bolalarni o'z olami mavjud bo'lib ular shu olamlarida yashaydilar. Fikrlashi boshqalarnikiga o'xshamaydi. Ularning xatti-harakatlari real voqealik bilan bog'liq emas. Bemorlarning harakatlarida hissiy kechinmalar asosiy o'rinni tutadi. Bu kasallik sindromi o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'p uchraydi. Simptomlarning har xilligi va kasallik o'zgaruvchanligi ushbu kasallik qiyinligidan dalolat beradi: sezilarsiz autistik xususiyatlardan to doimiy parvarish talab etilishigacha.

Autizmnинг kelib chiqish sabablari. Olimlar fikricha autizm kasalligining kelib chiqish sabablaridan biri bu - homilani ona qornidalik davrida ma'lum turdag'i oqsillarning yetishmovchiligi, ikkinchi sababi organizmda ikki og'ir metalning qo'rg'oshin va simobning ko'payib ketishi. Uchinchi sabab atrof muhitni ekologik buzilishi va homiladorlik vaqtida kuchli stress holatini kechirish. Anemiya hamda qon bosimining oshishi, buyrakda bosim oshishi - bularning barchasi autizmnинг kelib

chiqish sabablari hisoblanadi. Bundan tashqari autizm kasalligi belgilarining kengayishini, ya’ni rivojlanishidan ortda qolish belgilari Retta sindromi, Asperger sindromi va autizmning klassik simptom komplekslarining ko‘p uchrashi. Shuningdek kasallik haqida malumot ko‘paymoqda ilgari tortinchoq, uyatchan, introvert va shizofreniyaga moyil bolalarni "g‘ayritabiyy bolalar" deyishgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib bunday bolalarni autistik bolalar (autizm) deyishmoqda.[2]

Autizm belgilari:

Autizm bilan og‘rigan bemorlarda nutq sekin va yaqqol o‘ziga xoslik bilan rivojlanadi. Sekin rivojlanish so‘zlar va jumlalarning kechroq paydo bo‘lishiga va maxsus agrammatizmda namoyon bo‘ladi. Ko‘p hollarda nutq stretipik bola tez-tez iqtiboslar yoki yodlab olgan jumlalar bilan gapirodi, mustaqil gap tuzmaydi. Tez uchrab turadigan simptom -"exolaliya" - faqat eshitgan gapni takrorlash. Har qanday holatda ham nutq muloqot uchun foydalanilmaydi. Autistik bolalarda noberval kommunikatsiya imo-ishora va mimika ham buziladi. Nutqi rivojlanishidan ortda qolayotgan bola ishoralar, mimika bilan o‘zining fikrlarini yetkazib berishi mumkin. Autizm bilan kasalangan bola esa buni qila olmaydi. Autizmga chalingan bola vaqtini sezmayd, hozirda ro‘y berayotgan voqeа-hodisalarini o‘tgan yoki kelasi zamon bilan almashtiradi, real voqeа hodisalarini fantastik mavhum voqeа-hodisalar bilan almashtirib yuboradi. [2] Autizm holatida bola faoliyati suslashadi yoki keraksiz noaniq faoliyat bilan shug‘ullanadi. Bolaning xulq-atvori buziladi, o‘yin faoliyatiga qiziqishi sustlashadi, mayus holatda yuradi, kattalar va tengdoshlari bilan aloqada bo‘lmaydi, hech kim bilan gaplashishni xohlamaydi, bazilarida indamaslik (mutizm holati) kuzatiladi. Bundan tashqari yana quyidagi belgilarini keltirish mumkin :

- ko‘z (ko‘zingizga qaramasa) aloqasi cheklangan yoki umuman bo‘lmasligi;
- juda harakatsiz yoki juda faol bo‘lishi mumkin;
- ismi bilan chaqirilganda hech qanday reaksiya bildirmasliklari;
- atrofdagilar bilan qiziqmasligi, hech qanday sababsiz yig‘lashlari yoki kulishlari mumkin;
- bazi narsalarga haddan tashqari bog‘langan bo‘lishlari mumkin;
- atrof-muhit o‘zgarishi ularni bezovta qiladi;

Shu kabi belgilarni ko‘rishimiz mumkin.[2]

1943-yilda ingliz psixiatri Leo Kennerning "affektiv aloqaning autik buzilishi" nomli maqolasida berilishicha, Kenner davolash amliyotida 11 bolaning xulq-atvori, yurish-turishida o‘xshash belgilarni kuzatib "Ilk yoshdagи bolalar autizmi" atamasini kiritdi. U kuzatgan barcha bolalardagi belgilari hozirgi kunda ham autizmning asosiy belgilari sifatida o‘rganilmoqda. Ko‘p yillar mobaynida bolalar autizmi aqli zaiflik, shizofreniya kabi va boshqa ruhiy kasalliklarning belgilari sifatida o‘rganilgan edi.

Autizm alomatlari nihoyatda xilma-xil va shuning uchun ularning bazilari mavjudki ularni osonlikcha toifalarga ajratib bo‘lmaydi. Masalan bazi bir autizm

sindromli odamlar o'rtacha aql darajasidan ancha past, ammo ma'lum bir sohada, masalan matematika va yodlashda ajoyib qobiliyatga ega. Boshqa alomatlar hissiy sezgirlik bilan bog'liq. Autizm spektri buzilgan ko'plab odamlar issiqlik yoki sovuqqa nisbatan ko'plab noqulayliklarni his etishadi yoki boshqalar deyarli eshitmaydigan tovushlarni qabul qilish qobiliyatiga egalar.[3]

Bolalar psixonevrologi, bolalar psixiatri, bolalar pediatri, psixolog va defektolog mutaxassislar tomonidan autistik spektri buzilgan bola tashxisi qo'yiladi.

Bolalarga 18 oylikdan e'tiboran tashxis qo'yilishi mumkin. Yosh biz uchun juda katta ahamiyatga ega. Shuningdek bolaga ilk yoshidayoq tashxis qo'yib shug'llanilsa natijaga erishilishi mumkin. Agarda e'tibor berib bolalar bilan korreksion mashg'ulotlar olib borilsa, bola tez ijtimoiy hayotga tayyor va yaqinlarining yordamlarisiz yashay olish darajasiga etadi. Mutaxassislar bolani kuzatadilar, maxsus testdan o'tqazadilar, bola va ota-onalar bilan suxbat qiladilar.

Autizmnning Kenner, Asperger, Rett, Atipik sindrom turlari farqlanadi. Asperger sindromi birinchi marta 1944 yilda Vena psixiatri G. Asperger tasvirlagan. U bu nuqonni shaxsiyatning buzilishi deb bilgan va autistik psixopatiya deb belgilagan. Hozirgi vaqtga qadar kelib chiqish sabablari aniqlanmagan. Asperger sindromi yengil autizm buzilishining bir turi sanaladi. [4]

Asperger sindromli bolalar tengdoshlaridan muloqot buzilishlari, voqealikni aniqlamaslik, cheklangan va o'ziga xos stereotipik qiziqish doirasi bilan ajralib turadilar. Ba'zi bolalarda o'zlarini va atrofdagilar haqida g'ayrioddiy, nostandard tushunish qobiliyati erta aniqlanadi. Mantiqiy fikrlar saqlanib qolingan, hatto yahshi rivojlangan, ammo bilimni takrorlash qiyin va juda notekis. Faol va passiv diqqat beqaror, ammo individual autistik maqsadlarga katta energiya bilan erishiladi. Asperger sindromli bolalar hayotining dastlabki 3 yili tinch, osuda qiyinchiliklardan holi kechadi. Dastlab kongnitiv va nutqiy rivojlanishda orqada qolishlar kuzatilmaydi. Asperger sindromi 140-500 ta boladan bittasida uchraydi. Bu ko'rsatkich 6-8 o'g'il bolaga 1 ta qiz bola nisbatini tashkil etadi.

Autizm sindromli bolalardagi nuqsonlarni bartaraf etish uchun mutaxassislar tomonidan korreksion rivojlantiruvchi, bolani qo'llab quvvatlovchi ishlar olib borilishi lozim. Shuningdek ota-onalar ham farzandi bilan ko'proq shug'ullanib unga vaqt ajratishlari talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. D.A.Nurkeldiyeva, Ya.E.Chicherina "Ilk, maktabgacha va kichik mifik yoshidagi bolalarni psixologik-pedagogik, logopedik tekshirish" T-2014.
2. L.R. Mo'minova, Sh. M. Amirsaidova, Z.N. Mamarajabova, M.U. Xamidova, D.B. Yakubjanovna, Z.M. Djalolova, N.Z. Abidova "Maxsus Psixologiya" O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent 2013.

3. Vokhobova Munira Munojat Pòlatova Azamatovna. Alalia as dysontogenesis of speech development. Galaxy international interdisciplinary research journal (giirj)
4. Sadirdinovna, Vokhobova Munirakhan. "CORRECTIVE PEDOGOGICAL WORK CARRIED OUT IN STUTTERING CHILDREN." Open Access Repository 9.12 (2023): 372-375.
5. Sadirdinovna, Vokhobova Munirakhan. "features of the formation of imitation of speech in children with alalia speech defects." Galaxy International Interdisciplinary Research Journal 11.12 (2023): 1001-1004. Sadirdinovna, Voxobova Muniraxon. "Autizm kelib chiqish sabablari va davolash yo'llari." tadqiqotlar. UZ 48.2 (2024): 7-10.
6. Munira, Voxidova, and Qosimova Marhabo. "Ovoz kamchiliklarining uchrashi va ularni bartaraf etishning pedagogik asoslari." Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi 15.1 (2024): 29-32.
7. SADIRDINOVNA, VOKHOBOVA MUNIRAKHAN. "Ways and methods of speech formation of children with alaliya speech defects." Confrencea 3.03 (2023): 231-235.
8. Sadirdinovna, Vokhobova Munira. "Formation of speech imitation in children with severe degree of motor alalia." Open Access Repository 4.2 (2023): 316-320.
9. Munira, Voxobova, and Mirrahimova Xonzodabegim Sodiqjonovna. "Bolalarda yuvinel revmatoid artrit kasalligining kelib chiqishi hamda uning oldini olish choralar." Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi 15.1 (2024): 33-35.
13. Vaxobova, Muxtabar. "O'smirlarning ota-onalari bilan munosabatlaridagi muammolar." Журнал Педагогики и психологии в современном образовании 4.2 (2024): 53-57.
10. Sadirdinovna, V. M. (2023). FEATURES OF THE FORMATION OF IMITATION OF SPEECH IN CHILDREN WITH ALALIA SPEECH DEFECTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 11(12), 1001-1004.
11. Низамова, М. Н. (2022). ПРИЧИНА ВОЗНИКНОВЕНИЯ АУТИСТИЧЕСКОГО ДЕФЕКТА. Ученый XXI века, (5-1 (86)), 59-61.